

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

IBRAXIMOVA IRODA BOBIR QIZI

**KO'P TILLI O'ZBEK TALABALARIDA LISONIY IDENTIKLIKNING
SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasи**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Ibraximova Iroda Bobir qizi

Ko‘p tilli o‘zbek talabalarida lisoniy identiklikning sotsiolingvistik aspekti.....3

Ибрахимова Ирода Бобир кизи

Социолингвистический аспект языковой идентичности у многоязычных
узбекских студентов.....27

Ibrakhimova Iroda Bobir kizi

Sociolinguistic Aspect of Linguistic Identity of Multilingual Uzbek
Students.....53

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....57

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

IBRAXIMOVA IRODA BOBIR QIZI

**KO'P TILLI O'ZBEK TALABALARIDA LISONIY IDENTIKLIKNING
SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.3.PhD/Fil5191 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ergasheva Guli Ismoil qizi
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Hamroyeva Shaxlo Mirdjonovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Siddiqova Iroda Abduzuhurovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "16" yanvar soat 10 da
majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi,
21A-uy. Tel.: (99871) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92; email:uzswlu_info@mail.ru.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida
tanishish mumkin (210 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani,
Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21A-uy. Tel.: (99871) 230-12-91.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "30" dekabr kuni tarqatildi.

(2025-yil "30" dekabr dagi 6 raqamli reyestr bayonnomasi).



LM.Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik ilmiy
kengash raisi, pedagogika fanlari doktori,
professor

X.B.Samigova

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik ilmiy
kengash kotibi, filologiya fanlari doktori,
professor

J.A.Yakubov

Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik ilmiy
kengash qoshidagi Bir martalik ilmiy seminar
raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahon tilshunosligida ko‘p tillilik va lisoniy identiklik masalalari so‘nggi yillarda keng miqyosda o‘rganila boshlandi hamda amaliy tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida tillar hamda madaniyatlar o‘rtasidagi munosabatlar jadallahayotgani bunga sababdir. Globalizatsiya va migratsiya jarayonlari, shuningdek, madaniy va ijtimoiy integratsiya masalalari tufayli ko‘p tilli jamiyatlar soni hamda ularning ta’siri tobora ortib borayotgani uchun ko‘p tillilik va lisoniy identiklik masalalarini o‘rganishning ahamiyati ortib bormoqda. Xususan, ko‘p tilli shaxslarning identifikatsiyasi, ularning til tanlovi va madaniyatlararo aloqalardagi o‘rni jahon tilshunosligida muhim tadqiqot obyekti sifatida qaralmoqda. Ko‘p tillilik va lisoniy identiklik munosabati borasidagi tadqiqotlar bir vaqtning o‘zida ham shaxsiy, ijtimoiy va madaniy jihatlarni o‘rganishga imkon beradi.

Dunyo tilshunosligida bu mavzu nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda ko‘p tilli shaxslar jamiyatlararo muloqotda muhim rol o‘ynaydi. Ko‘p tilli shaxslar madaniyatlararo aloqalarni rivojlantirish, til va madaniyatlar o‘rtasidagi farqlarni tushunish hamda jamiyatda o‘z o‘rnini topishda o‘rganilishi zarur bo‘lgan soha sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, ko‘p tillilik va lisoniy identiklikning ijtimoiy, psixologik hamda madaniy omillarini o‘rganish ko‘p tilli va ko‘p madaniyatli jamiyatlarda muvaffaqiyatli integratsiya uchun zaruriyatdir.

Mamlakatimizda ko‘p tilli shaxslar, xususan, o‘zbek, rus va ingliz tillarida erkin so‘zlashuvchi yoshlar soni yildan yilga ortib bormoqda. Faol qo‘llanishda bo‘lgan tillarning yosh avlod hayotida qanday rol o‘ynashi, ular orasida qaysi biri dominant ekanligi va bu jarayonning shaxsiy hamda ijtimoiy identiklikka ta’sirini aniqlash bugunning dolzarb masalalaridandir. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin”¹. Demak, ko‘p tilli o‘zbek yoshlarining lisoniy identikligini o‘rganish, ularning jamiyatdagi o‘rni va roli, shuningdek, bu jarayonning ijtimoiy hamda madaniy ahamiyatini aniqlash bugungi kunning muhim ilmiy va amaliy vazifalaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-

¹ Shavkat Mirziyoyev: Yoshlari tarbiyasi eng muhim masalalardan // <https://uz.uz/posts/70440>

maydagi PQ-5117-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son O‘zbekiston Respublikasi oliv ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 24-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020-yil 23-sentyabrdagi 637-son “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. So‘nggi yillarda globalizatsiya jarayonlarining jadallahuvi va uning inson turmush tarziga ta’siri natijasida olimlarning identiklik hamda uning insonlar hayotidagi o‘rni masalasiga e’tibori keskin oshdi; identiklikni shaxs, jamiyat va siyosat nuqtayi nazaridan o‘rganish, ayniqsa, jadal tus oldi.

Xususan, O‘zbekistonda Sh.Iskandarov, Z.Odinayeva, D.Kalandarova, X.Kadirova, A.Xursandov, X.Soqiyev² kabi olimlar identiklik masalasini ijtimoiy falsafa, dinshunoslik, tarix, sotsiologiya va siyosiy fanlar doirasida o‘rgangan bo‘lsalar, Sh.Madiyevaning “Identiklik antropologiyasi”³ kitobining 6-bobi “O‘zbek tili identikligi – milliy identiklikning ajralmas qismi” nomi ostida o‘zbek tili taraqqiyoti bosqichlarini chuqur tahlil etgani bilan ahamiyatlidir. Til va identiklik munosabati masalalarini lingvistik jihatdan o‘rganish amaliyoti esa G.Ergasheva, G‘.Rahimov, Sh.Xushmurodova, M.Umurzoqova singari olimlarimiz faoliyatida aks etib kelmoqda.

² Iskandarov Sh. O‘zbekiston arablari etnomadaniy identikligining shakllanishi va transformatsiyasi. Tarj. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2019; Odinayeva Z. O‘zbek milliy identikligi aksilogik tamoyil va qonuniyatlariga falsafiy konseptual yondashuv. Fals. f. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2020; Kalandarova D. Axborotlashgan jamiyat ijtimoiy identikligi shakllanishida din omili. Fals. f. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2020; Kadirova X. Qoraqalpoq xalqining milliy identiklik xususiyatlari. Sots. f. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2020; Xursandov A. Yoshlar ijtimoiylashuvida milliy-siyosiy identifikatsiyaning namoyon bo‘lish xususiyatlari. Siyos. fan. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2020; Soqiyev X. Axborotlashgan jamiyatda shaxs identikligining shakllanish xususiyatlari. Fals. f. b. fals. dok. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2022.

³ Madayeva Sh. Identiklik antropologiyasi. – Toshkent: Noshir, 2015. – B. 107-153.

Rus olimlaridan D.Xilxanov, R.Borisov, E.Kremer, A.Kazaryan, V.Karasik⁴ va boshqalar mavzu yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan. Ular yondashuvida lisoniy identiklik masalasi etnik va milliy identiklik tushunchalari bilan uzviy ravishda o‘rganilganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Xorijiy davlatlarda B.Norton, J.Josef, A.Pavlenko, D.Blok, M.Bhat, S.Rizoiy, R.Dressler, S.Pris, B.Jalehguyan, S.Zibengyutter⁵ singari bir qator olimlar tomonidan olib borilgan ishlar lisoniy identiklik, ko‘p tillilik va madaniy o‘ziga xoslikning shakllanishiga oid nazariy asoslarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotlar asosida lisoniy identiklikning turfa xususiyatlari, til va identiklik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ijtimoiy muloqot hamda ta’lim kontekstida o‘rganilgan, lisoniy identiklikni madaniyatlararo muloqot, ko‘p tillilik va globalizatsiya sharoitidagi o‘zgarishlar kontekstida ko‘rib chiqilgan bo‘lishiga qaramasdan, bu sohada hali ham ayrim masalalarni davomli o‘rganishga ehtiyoj bor. Xususan, O‘zbekiston sharoitida ko‘p tilli yoshlarning lisoniy identikligi haqida ilmiy asoslangan, empirik tadqiqotga tayangan kompleks tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur ilmiy ish xorijiy tadqiqotchilar yutuqlariga tayangan holda o‘ziga xos sharoitlarda lisoniy identiklik masalasini amaliy jihatdan tahlil qilishni nazarda tutadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Antropotsentrik tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlarida fanlararo yondashuv” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ko‘p tilli o‘zbek talabalarida lisoniy identiklikning sotsiolingvistik aspektini olib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

lisoniy identiklikni o‘rganishning nazariy va metodologik asoslarini aniqlash; lisoniy identiklikning ekstralingvistik omillar ta’sirida shakllanishi hamda bu omillarning o‘zaro bog‘liqligini asoslab berish;

⁴ Хилханов Д. Этническая идентичность: роль хозяйственно-экономических и культурно-языковых факторов. Дисс. ... д-ра. соц. наук. – М., 2007; Борисов Р. Языковая компетентность как средство выражения этнической идентичности и формирования межэтнической толерантности учащейся молодёжи. Дисс. ... канд. псих. наук. – М., 2007; Кремер Е. Проблемы русско-ионационального билингвизма: языковая и этническая идентичность билингвальной личности. Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2010; Казарян А. Государственная языковая политика в современной России как основа сохранения национальной идентичности в контексте мировых глобализационных процессов. Дисс. ... канд. полит. наук. – М., 2013; Карасик В.И. Социально-языковая идентичность: динамика, виртуализация, моделирование // Русский язык за рубежом. – М., 2020. – № 1. – С. 31-37.

⁵ Norton B. Identity and Language Learning. – London: Longman, 2000; Joseph J. Language and Identity. – London: Palgrave, 2004; Pavlenko A. Bilingual Minds: Emotional Experience, Expression, and Representation. – UK, Frankfurt Lodge: Multilingual Matters, 2006; Block D. Second Language Identities. – London: Continuum, 2007; Bhat M.A. Reconstructing Linguistic Identities // Teknosastik, 2010; Rezaei S. Researching identity in applied linguistics // Language, Culture and Society, 2012. – № 35; Dressler R. Exploring Linguistic Identity in Young Multilingual Learners // TESL. – Canada, 2014. – № 32; Preece S. Introduction: identity in applied linguistics // In The Routledge Handbook of Language and Identity. – Oxon: Routledge, 2016; Zhalehgooyan B. Second language identity. In Van Schools tot Scriptie III. – Leiden: Universiteit Leiden, 2017; Siebenhüter S. The multilingual profile and its impact on identity: Approaching the difference between multilingualism and multilingual identity or linguistic identity // Ampersand, 2023. – № 10.

O‘zbekistonning ko‘p tilli muhitida o‘zbek, rus, ingliz va boshqa tillarning sotsiolingvistik dinamikasini ochib berish;

ko‘p tilli o‘zbek talabalari o‘z lisoniy identikligini qanday idrok etishi va namoyon qilishini aniqlash;

ko‘p tilli o‘zbek talabalarining lisoniy identikligi ularning turli muloqot kontekstlarida til tanlovlarini amalga oshirishlarida qanday miqiyosda ta’sir etishini asoslash;

ko‘p tilli o‘zbek talabalarining lisoniy identikligi haqidagi deskriptiv ma’lumotlarni tahlil qilish orqali sotsiolingvistik xulosalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ko‘p tilli (o‘zbek, rus va ingliz tillarida so‘zlashuvchi) o‘zbek talabalarining lisoniy identikligi tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ko‘p tilli (o‘zbek, rus va ingliz tillarida so‘zlashuvchi) o‘zbek talabalarida lisoniy identiklik namoyon bo‘lishining sotsiolingvistik aspekti tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda analiz, sintez, hujjatlarni tahlil qilish, tavsiflash, statistik tahlil, lingvomadaniy tahlil, anketa, so‘rovnoma, intervyu, etnografik kuzatuv kabi tadqiqot usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

lisoniy identiklik tushunchasining nazariy-metodologik asoslarini psixosotsial, sotsiomadaniy va posstruktural yondashuvlarning integratsiyasiga tayangan holda ko‘p nazariyali yondashuv asosida tizimli tahlil qilish orqali ko‘p tilli shaxs lisoniy identikligining shakllanishi tilni idrok etish, ma’lum til jamiyatiga nisbatan tegishlilik hissi, til bilan bog‘liq emotsional tajribalar va muloqot kontekstiga ko‘ra til tanlash jarayonlari bilan belgilanuvchi dinamik va murakkab hodisa ekanligi dalillangan;

ko‘p tilli shaxslar lisoniy identikligining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni sotsiolingvistik, psixologik, ta’limiy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy, globallashuv va texnologik jarayonlarni qamrab oluvchi makro darajadagi hamda shaxsning individual til tajribasi, ijtimoiy mavqeい, madaniy mansublik hissi, emotsional munosabati, kasb, yashash muhiti, yosh va etnik kelib chiqishga asoslangan mikro darajadagi omillar sifatida tizimli tasniflash orqali ularning o‘zaro funksional bog‘liqligi shaxsning lisoniy identikligini kommunikativ vaziyatlarda namoyon bo‘lishining o‘zgaruvchan va kontekstga bog‘liq tabiatini belgilovchi asosiy mexanizm ekanligi ilk bor kompleks tahlil asosida ilmiy asoslangan;

O‘zbekistonda keng qo‘llanishda bo‘lgan tillarning hududlar miqiyosida faolligi, ularning ta’lim-tarbiya jarayonidagi funksional yuklamasi, til siyosatining ushbu tillar faolligi va ijtimoiy mavqeiga ta’siri kabi jihatlari asosida O‘zbekistonning ko‘p tilli muhitidagi o‘zbek, rus, qoraqalpoq, tojik, qozoq, qirg‘iz, turkman va ingliz tillarining sotsiolingvistik dinamikasi statistik tahlil usuli orqali aniqlangan;

empirik tadqiqot doirasida qo‘llanilgan metodologik yondashuvlar asosida ko‘p tilli o‘zbek talabalarining lisoniy identikligining shakllanishi, ularning o‘zini lisoniy identifikatsiya qilish mezonlari, turli muloqot kontekstlarida til tanlashning funksional mexanizmlari, kodlar aralashuvi, ko‘p tillilik darajasi, tillarga nisbatan emotsional assotsiatsiyalari hamda lisoniy identiklik va madaniy-ijtimoiy omillar

o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonlari singari ko‘p tilli o‘zbek talabalari lisoniy identikligining sotsiolingvistik jihatlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ko‘p tilli talabalarning lisoniy identikligini o‘rganishga qaratilgan so‘rovnoma va metodik vositalar ishlab chiqilgan hamda amaliy tadqiqotlar uchun joriy etilgan;

O‘zbekiston hududidagi ko‘p tilli talabalar tomonidan o‘zbek, rus va ingliz tillariga nisbatan shaxsiy hamda ijtimoiy qarashlarni aniqlashga qaratilgan so‘rov natijalari tahlil qilingan;

olingan natijalar asosida ko‘p tilli talabalar til tajribasi va identikligiga oid sotsiologik xulosalar ishlab chiqilib, lingvistik muhitning o‘zaro ta’sir jarayonlari haqida ma’lumot berilgan;

tadqiqot natijalari ko‘p tillilik va lisoniy identiklikni qo‘llab-quvvatlashga doir ta’lim dasturlarini takomillashtirish hamda o‘quv metodikalarini ishlab chiqishda foydalanish uchun zarur ilmiy asoslarni taqdim etadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchhliligi respublika va xalqaro miqyosdagi konferensiya materiallari to‘plamlari, OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar muhokamadan o‘tkazilgani, shuningdek, dissertatsiya ishining dastlabki natijalari amaliyotda joriy qilingani va uning vakolatli idoralar tomonidan tegishli tartibda tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O‘zbekistonning ko‘p tilli muhitida shakllanadigan lisoniy identiklikning sotsiolingvistik xususiyatlarini nazariy jihatdan asoslab berishi, lisoniy identiklikning shakllanishiga ta’sir etuvchi ekstraliningvistik omillarni tizimli tasnifashi, lisoniy identiklik va ko‘p tillilikka oid mavjud nazariy qarashlarni empirik materiallar asosida boyitib, til nazariyasi va amaliy tilshunoslik doirasida ushbu masalalarni o‘rganishda ilmiy vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tilshunoslik nazariyasi, amaliy tilshunoslik, sotsiolingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya, pragmalingvistika va diskurs tahlili fanlarini o‘qitish jarayonida dastur va ishchi reja tuzishda, mavzularni nazariy hamda empirik materiallar asosida bayon etishda manba vazifasini o‘tashi mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari ko‘p tillilik va lisoniy identiklikni rivojlantirishga doir amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda qo‘llanishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ko‘p tilli o‘zbek talabalarida lisoniy identiklikning sotsiolingvistik aspekti mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

lisoniy identiklik tushunchasining nazariy va metodologik asoslari, ko‘p tillilik sharoitida uning shakllanish xususiyatlariga oid xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida 2021-2023-yillarda bajarilgan Ref: 608413-EPP-1-2019-1-NO-EPPKA2-CBY-ACPALA raqamli “Erasmus+ “Gender asosidagi zo‘ravonlikning oldini olishda imkoniyatlarni kengaytirish yo‘llari” mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va

adabiyoti universitetining 2025-yil 31-yanvardagi №4/1-385-sonli ma'lumotnomasi). Dissertatsiya natijalaridan loyiha doirasidagi trening va seminar dasturlarini ishlab chiqishda, ko'p tilli talabalarning lisoniy identiklik xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim materiallarini tayyorlashda foydalanilgan;

lisoniy identiklik shakllanishiga ta'sir etuvchi mikro va makro darajadagi omillar, ushbu omillarning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi va O'zbekiston sharoitida shaxs lisoniy identikligiga qanday ta'sir ko'rsatishiga oid xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida 2021-2023-yillarda bajarilgan Ref: 608413-EPP-1-2019-1-NO-EPPKA2-CBY-ACPALA raqamli "Erasmus+ "Gender asosidagi zo'ravonlikning oldini olishda imkoniyatlarni kengaytirish yo'llari" mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 31-yanvardagi №4/1-385-sonli ma'lumotnomasi). Natijada lisoniy identiklik va gender stereotiplari o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish orqali, gender tengligini ta'minlashga xizmat qiluvchi kommunikativ strategiyalarni shakllantirishda tadqiqot natijalari ilmiy asos sifatida qo'llanilgan. Ko'p tilli muhitda yoshlarning o'z fikrlarini gender tengligi kontekstida erkin va aniq ifodalash qobiliyatini oshirish bo'yicha metodik ko'rsatmalar ishlab chiqishda istifoda etilgan;

O'zbekistondagi lisoniy vaziyat va til siyosatining statistik tahlillari natijasida ochib berilgan o'zbek, rus, ingliz, tojik, qozoq va boshqa tillarning sotsiolingvistik dinamikasi ma'lumotlari, shuningdek, tadqiqotning amaliy qismi sifatida O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz filologiyasi fakulteti talabalari misolida empirik tadqiqot olib borish asnosida ko'p tilli o'zbek talabalari lisoniy identikligining aniqlangan sotsiolingvistik jihatlari bo'yicha xulosalardan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida 2023-2024-yillarga mo'ljallangan IL-662204405 sonli "Ekperimental fonetik laborotoriya yaratish (xorijiy til misolida)" loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 11-yanvardagi 04-01/85-son ma'lumotnomasi). Natijada xorijiy tillarni o'rganuvchi ko'p tilli talabalarning lisoniy identikligiga oid qator masalalarining ahamiyatini o'rganish va tahlil qilish, ular nutqidagi kodlar aralashuvi jarayonlarini va ularning fonetik jihatlarini ilmiy kuzatish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika anjumanida muhokama qilingan hamda ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsija etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 157 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida tadqiqotning dolzarbliji va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, qo’llanilgan metodlar, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy va amaliy natijalari bayon qilingan, erishilgan natijalarning ilmiy yangiligi olib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotda joriy etish va foydalanish imkoniyatlari, nashr qilingan ilmiy ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Identiklikni o‘rganishda til omilini tahlil etishning nazariy-metodologik asoslari**” deb nomlangan. Ushbu bobning “Identiklik tushunchasining mazmun-mohiyati. Lisoniy identiklik tadqiqot obyekti sifatida” deb nomlangan birinchi faslida identiklik va lisoniy identiklik terminlarining ma’nolari, ularning tasnifi va ilmiy adabiyotlarda keltirilgan izohlari haqida so‘z boradi.

Identiklik so‘zi lotin tilidagi “idem” – “bir xil” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, uning sinonimlari sifatida individuallik, o‘zlik, xarakter, shaxsiyat, bir xillik kabi so‘zlar keltiriladi⁶. Cambridge lug‘ati izohiga ko‘ra, “identiklik shaxsning uni boshqalardan farqlab turuvchi xususiyatlari, tuyg‘ulari va ishonchidir”⁷. Oxford learner’s dictionaryda esa, so‘zning yana bir ma’nosи “kimnidir/nimanidir tushuna olish va kimgadir/nimagadir juda o‘xhash bo‘lish tuyg‘usi hamda holati” deb izohlangan⁸. Identiklik bir vaqtning o‘zida ham shaxsning “Men kimman?” degan savolga o‘zi berar javobi hamda atrofdagilarning uning kimligini qanday idrok etishlaridir. Demak, identiklik ma’lum millat, madaniyat, ijtimoiy guruhga tegishlilik va tegishli emaslikni, o‘xhashlik va farqlilikni ifodalash vositasi bo‘lib, ham tashqi bahoni, ham o‘zlik ifodasini akslantiradi⁹.

Identiklik o‘ta murakkab tuzilma bo‘lganligi sababli uni tasniflashda yagona, izchil nazariy yondashuv mavjud emas. Identiklikning har qanday muhokamasi “men” tushunchasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u dinamik va murakkab, davomli, zamon va makon bo‘ylab doimiy o‘zgarib turuvchi, ijtimoiy va ko‘p sonlilik xususiyatlariga ega¹⁰.

Identiklik bir qator faktorlar, xususan, din, etnik kelib chiqish, irq, ijtimoiy qatlam, ta’lim, ijtimoiy muhit va ushbu guruhga mansub insonlarning shaxsning yuqoridagi faktorlar bilan bog‘liq mafkura hamda qarashlari haqidagi bilimi va ularga hurmatiga nisbatan bildiradigan reksiyalari ta’sirida shakllangan o‘zlik konseptini ifoda etadi¹¹.

⁶ Collins English Dictionary. – Glasgow: HarperCollins Publishers, 2023.

⁷ Cambridge Dictionary. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021.

⁸ Oxford Advanced Learner’s Dictionary. 8th edition. – Oxford: Oxford University Press, 2014.

⁹ Siebenhüller S. The multilingual profile and its impact on identity: Approaching the difference between multilingualism and multilingual identity or linguistic identity // Ampersand, 2023. Volume 10. 100123. – P. 2.

¹⁰ Wenger E. Communities of Practice: Learning, Meaning and Identity. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – P. 163.

¹¹ Nuessel F. Language as/and Identity // Semiotics 2003: Semiotics and National Identity. – Ottawa: Legas, 2005. – P. 355.

Identiklik o‘ziga xos jihatlar, e’tiqodlar, shaxsiy xususiyatlar, tashqi ko‘rinish va/yoki shaxs yoki gurujni tasvirlaydigan ifodalarni anglatadi. Identiklikning ahamiyati u orqali inson o‘zini biror joy yoki biror narsaga tegishlidek his qilishi bilan izohlanadi. Chunki “tegishlilik” tuyg‘usi insonning o‘ziga bo‘lgan ishonchini shakllantirish va salomatligini saqlashda muhim o‘rin tutadi. Til, ayniqlsa, nutq, xoh individual darajada bo‘lsin, xoh guruhi chida bo‘lsin u yoki bu shaxsning kimligini o‘chib beradi¹².

Jenkins identiklik haqida mulohazalarini ifodalar ekan, uning xususiyatlarini quyidagicha bayon etadi: 1. Identiklik unga egalik qilinadigan muayyan obyekt bo‘lmay, balki sekin-astalik bilan shakllantiriladi. 2. Identiklik shakllanishi vaqt va makonni talab qiladi; shunga ko‘ra u jarayondir. Zamon va makonga bog‘liqligi sababli, uning ijtimoiy qo‘llanilishi ham kontekstual jihatdan konstruktivdir. Shuningdek, identiklik nisbiy tushuncha bo‘lib, u faqatgina identiklik sohiblarining bir-biridan qanchalar farqliligi va bir-biriga qanchalar o‘xshashligini aniqlash orqali izohlanishi mumkin¹³.

Insonning identikligi bir qancha jihatlarda namoyon bo‘lib, uni turli olimlar turlicha klassifikatsiyalagan. Blok talqiniga ko‘ra identiklikning quyidagi turlari bor: 1. Etnik – Madaniy guruhga tegishli umumiylar jihatlar, xususan, tarix, shajara, e’tiqod, an’analar, til va din umumiyligi tuyg‘usi. 2. Irqiy – Biologik/genetik tarkib. 3. Milliy – Millat darajasida umumiylar bo‘lgan tarix, shajara, e’tiqod, an’analar, til va din umumiyligi tuyg‘usi. 4. Jinsiy – Ijtimoiy shakllantirilgan ayollik va erkaklik tushunchalariga muvofiqlik tabiatini hamda darajasi. 5. Lisoniy – Shaxsning o‘zlik tushunchasi va turfa muloqot vositalari: til, sheva hamda sotsiolekt o‘rtasidagi aloqada ko‘rinadi¹⁴.

Identiklikni yo‘qotgan inson turkiy tillarda manqurt deb ataladi. Identiklik inqirozi bugun hatto dunyoning rivojlangan davlatlarida uchrayotgani achinarli holat. Men o‘zimni ayol his qilaman deydigan erkaklar, men o‘zimni oq tanli yo qora tanli his qilaman, men o‘zimni hayvon deb e’lon qilaman singari vajlar, afsuski, bugun insoniyat vakillariga begona emas.

Shunday qilib, identiklik – bu shaxsning o‘zini anglash, ijtimoiy guruhlarga tegishlilagini his qilish va boshqa odamlar yoki jamiyat tomonidan qanday qabul qilinishini aks ettiruvchi murakkab tushuncha. Bu tushuncha o‘ziga xos ravishda shaxsiy va ijtimoiy identiklikni qamrab oladi. Identiklik nafaqat shaxsiy xususiyatlar va oila muhitiga, balki tarixiy omillar, madaniy me’yorlar hamda ijtimoiy va siyosiy sharoitlarga ham bog‘liq.

O‘zbekistonda identiklik tadqiqi borasida bugungacha bir nechta ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo‘lib, ular, asosan, ijtimoiy falsafa, dinshunoslik, sotsiologiya va siyosiy fanlar doirasida amalga oshirilgan. Sh.Iskandarov, Z.Odinayeva, D.Kalandarova, X.Kadirova, A.Xursandov, X.Soqiyev kabi olimlar identiklik masalasiga ilmiy yondashib, uni va unga ta’sir etuvchi omillarni turfa nuqtayi

¹² Sabri S., Minwas J.R. A review on identity from a linguistic and sociological perspective // Social Sciences & Educational Studies, 2022. – № 9 (4). – P. 226-228.

¹³ Jenkins R. Social identity (3rd ed.). – London and New York: Routledge, 2008. – P. 90.

¹⁴ Block D. Identity in applied linguistics: Where are we? In T.Omoniyi & G.White (Eds.) // The Sociolinguistics of Identity. – London: Continuum, 2006. – P. 36.

nazardan o‘rganishgan. Bu borada til omili ahamiyati ba’zi ishlarda tilga olinsa-da, u asosiy planda – lisoniy identiklik sifatida alohida yetarlicha tadqiq etilmagan.

Til va identiklik munosabati masalasi rus olimlari tomonidan ham faol o‘rganilib kelinmoqda. Xusasan, D.Xilxanov, R.Borisov, Y.Kremer, A.Kazaryan va boshqa olimlar mavzu yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.

Jahon amaliy tilshunosligi doirasida esa, identiklikka bi/multilingualizm, jamiyatda til, ikkinchi til ta’limi va chet tili o‘qituvchisini tarbiyalash borasidagi ishlarda faol ravishda murojaat qilinadi¹⁵. S.Zibenxutter, D.Blok, B.Norton, R.Dressler, L.Fisher, K.Forbs, A.Gayton, Y.Liu, F.Nyuessel, J.Josef, S.Rizoiy, G.Peyman, R.Mutiara va M.Bhatning ilmiy ishlari til hamda identiklik o‘rtasidagi munosabatlarni faol yoritib, ushbu sohaning rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shmoqda.

Identiklikni til ta’limi doirasida o‘rganishga bag‘ishlangan ishlar identiklik va idealogiya, identiklik va irq, identiklik va jins, yozuvda identiklik, til o‘rganuvchi identikligi va o‘qituvchining professional identikligi kabi turfa masalalarni qamrab olgan¹⁶. Blokning yana bir klassifikatsiyasiga ko‘ra esa, identiklik xususidagi tadqiqotlarni 3 ta asosiy kategoriyaga ajratish mumkin: 1. Immigrantlardagi ikkinchi til (L2) identikligi; 2. Ikkinchi til kontekstidagi L2 identikligi; 3. Chet tili kontekstidagi L2 identikligi.

Lisoniy identiklik termini lingvistik (asosan, sotsiolingvistik) tadqiq adabiyotlarida (masalan, Dressler, 2014; Hansen Edwards, 2020; Palviaynen va Bergrot, 2018; Gayton va Fisher, 2022) takror qo‘llaniluvchi atama hisoblansa-da, u ko‘plab ishlarda qo‘shimcha izoh va tushuntirishlarsiz foydalanilgan, yoki ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy fanlar doirasidagi ijtimoiy identiklik tushunchasi kabi qo‘llanilgan (masalan, Kuo, 2009; Park, 2012; Sung, 2022; Uing va boshqalar 2015).¹⁷

Peyman uni quyidagicha ta’riflaydi: “Lisoniy identiklik deganda biz nihoyatda noturg‘un va o‘zgaruvchan bo‘lgan, u orqali shaxslar turli kontektslarda o‘zligini namoyon etuvchi, lingvistik jihatdan ifodalanuvchi identiklikni nazarda tutamiz”¹⁸. Mazkur ishda lisoniy identiklik tushunchasiga ushbu ta’rif yuzasidan yondashiladi va uning o‘zgaruvchanligi, kontekstual jihatlari hamda til orqali ifodalanishi asosida tahlil olib boriladi.

Til identiklik shakllanish jarayonida muhim o‘rin tutadi. Tilni unutish yoxud uni kundalik faoliyatda qo‘llashni kamaytirish shaxsning identikligiga putur yetkazishi, yoki unga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Til identiklik shakllanishida 2 taraflama vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin, birinchidan, til shaxsning boshqa

¹⁵ Block D. Issues in language and identity research in applied linguistics // Estudios De Lingüística Inglesa Aplicada, 2013. – № 13. – P. 3.

¹⁶ Block D. Identity in applied linguistics: The need for conceptual exploration // In Contemporary Applied Linguistics, 2009. Volume 1. – P. 215.

¹⁷ Siebenhüttner S. The multilingual profile and its impact on identity: Approaching the difference between multilingualism and multilingual identity or linguistic identity // Ampersand, 2023. Volume 10. 100123. – P. 3.

¹⁸ Payman G.M. Construction of Linguistic Identity // International Journal of Central University of Kerala, 2018. – P. 90.

shaxslar va o‘zi bilan muloqoti vositasidir. Til ifoda etish orqali o‘zini anglab yetishning muhim bo‘lagi sanaladi. Ikkinchidan, til boshqalar bilan verbal muloqotga kirishish uchun zaruriy shartdir va u boshqalar tomonidan insonni identifikatsiyalash uchun qo‘llaniladi¹⁹.

Bonni Norton, Sian Pris, Devid Blok, Frank Nyuessel, Linda Fisher va Stefani Zibenxutter kabi bir qator olimlar lisoniy identiklik tadqiqotlari bo‘yicha sifatli materiallar mualliflaridir. Rika Mutiara, Amina Xolid and Arshad Ali Xon, Yanling Say va Liang Chjao kabi tadqiqotchilar esa, amaliy tadqiqotlar orqali lisoniy identiklik tahlilini o‘tkazganlar.

Demak, identiklik ma’lum millat, madaniyat, ijtimoiy guruhga tegishlilik va tegishli emaslikni, o‘xshashlik va farqlilikni ifodalash vositasi bo‘lib, ham tashqi bahoni, ham o‘zlik ifodasini akslantiradi. Lisoniy identiklikka funksional nuqtayi nazardan yondashuvning quyidagi usullari bor:

1. Tini o‘zlashtirish va qo‘llash identiklikni shakllantirish elementi sifatida;
2. Til tanlovlari (masalan nutq uslubi (registr) identiklikni namoyon etish vositasi sifatida;
3. Til o‘z-o‘zini tushunish, insonning o‘z o‘ylari, tuyg‘ulari, ko‘rgan-kechirganlari, amallari va e’tiqodi xususida mulohaza qilishi (self reflection)ning bir qismi sifatida;
4. Insonni ta’rif va tasniflashda (identifikatsiya qilishda) boshqalar tomonidan qo‘llaniluvchi vosita sifatida;
5. Lisoniy identiklik til kompetensiyasi sinonimi sifatida;
6. Til qo‘llanilishi va lisoniy identiklik sinonim sifatida²⁰.

Multilingual til o‘rganuvchisi lisoniy identikligini e’tiborsiz qoldirish kognitiv dissonansga, til rivojlanishiga to‘sqinlik qilishga, o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishiga hamda akademik va ijtimoiy integratsiyadagi ehtimoliy muammolarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun Morgan uning ahamiyatini “ESL sinfidagi identiklik ishi nafaqat tavsiflovchi, balki tubdan o‘zgartiruvchidir” deb ta’kidlaydi²¹. Bonni Norton til o‘rganish va identiklik shakllanish jarayonining uzviy bog‘liqligi xususida shunday yozadi: “Tilga investitsiya, shuningdek, vaqt va makon bo‘yicha o‘zgarib turadigan o‘quvchining ijtimoiy identikligiga investitsiyadir”²².

Bobda, shuningdek, identiklikni tadqiq etishda nazariy jihatdan eng faol qo‘llaniluvchi 3 yondashuv: psixosotsial, sotsiomadaniy va poststruktural yondashuvlarning umumiy hamda o‘ziga xos jihatlari, ushbu yondashuvlar vositasida olib borilgan tadqiqot ishlari va zamonaviy tadqiqotlarda obyektni ko‘p qirrali yondashuv asosida o‘rganishning ahamiyati, shuningdek, lisoniy identiklik tadqiqotlarida faol qo‘llaniluvchi metod va vositalar hamda lisoniy identiklik tadqiqotlari sohasidagi ilmiy bo‘shliqlar xususida so‘z boradi. Intervyu, etnografik

¹⁹ Krumm H. Mehrsprachigkeit und Identität. In Handbuch Mehrsprachigkeit und Bildung, Springer VS. – Wiesbaden, 2020. – P. 131.

²⁰ Siebenhüter S. The multilingual profile and its impact on identity: Approaching the difference between multilingualism and multilingual identity or linguistic identity // Ampersand, 2023. Volume 10. 100123. – P. 5.

²¹ Morgan B. Promoting and assessing critical language awareness // TESOL, 1995/1996. – № 5 (2). – P. 10.

²² Norton B. Language, Identity, and the Ownership of English // TESOL Quarterly, 1997. – № 31 (3). – P. 411.

kuzatuv, so‘rovnama, kundalik va jurnallar, hikoya so‘rovi, Til portreti silueti kabi metodlar bu turdag'i izlanishlarda faol qo‘llaniluvchi metodlar jumlasidandir. Ushbu metodlar vositasida ahamiyat qaratilishi kerak bo‘lgan masalalar ham keng qamrovli. Xususan, shaxsning lisoniy identikligini tasvirlash u o‘zi gaplashayotgan tilni qanday qabul qilishi, o‘sha til orqali o‘zini qanday ifoda etishi va shu munosabatning turfa ijtimoiy kontekstlarda uning til tanlovlariga qanday ta’sir ko‘rsatishini tushunishni taqazo etadi. Bunda, shuningdek, kodlar aralashuvi namunalari, tillarga bo‘lgan munosabat va har bir tildagi malaka darajasi o‘rganilishi ham kerak. Til siyosati va jamiyatning muomalada bo‘lgan tillarga bo‘lgan munosabati singari ijtimoiy faktorlar ham lisoniy identiklikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Garchi til va identiklik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik hamda aloqalar so‘nggi yillarda faol ravishda o‘rganila boshlagan bo‘lsa-da, sohada o‘z yechimini kutayotgan masalalar, muammolar va javob topilmagan savollar bisyor. Lisoniy identiklik tadqiqotlari tahlilida psixologik yondashuvning yetishmasligi, tadqiqot ishtirokchilari soni kamligi, kuzatuvlar yetarlicha uzoq muddatli davom etmagani, intervyular doim ham ona tilida, yoki qatnashchi tanloviga ko‘ra istalgan tilda olinmagani, identiklikning o‘zi bir nechta bo‘lishi va doimiy o‘zgarishda ekanligi, ishlarning asosiy qismi ingliz tili bilan bog‘liq bo‘lib, boshqa tillarda so‘zlashuvchilar lisoniy identikligi nisbatan kam tadqiq etilgani kabi masalalar shunday kamchiliklardan ba’zilari bo‘lib, ushbu paragrafda shu va boshqa muammolar xususidagi olimlarning ilmiy mushohadalarini tahlil qilinadi hamda ehtimoliy yechimlar ko‘rib chiqiladi.

Bobda “Ikki tilda so‘zlashuvchi bilingual, yo ko‘p tilli shaxs turli tillarda gapirganda turlicha xulq-atvorni namoyon qiladimi? Yangi tilni o‘zlashtirish bosqichi yangi “ikkinci til o‘zligi”ni shakllantiradimi? Nega ba’zan bir masalaga munosabat bildirishda qaysi tilda so‘zlayotganimiz pozitsiyamizni belgilashda ta’sirga egami? Nega ba’zi masalalar haqida gapirganda bir tilda uyat, g‘azab yo hijolatlik kabi tuyg‘ular tuyiladi, boshqa tilda gapirganda esa yo‘q? Nega bir fikr turli tillarda ifoda etilganda turli darajadagi ta’sir kuchiga ega?” kabi bir qator savollarga ilmiy adabiyotlar tahlili orqali javob izlanadi.

J.Devale bir tildan ikkinchisiga o‘tganda insonda identiklik o‘zgarishini o‘rganib, bunday holat yuz beradigan insonlarni “ko‘p tilli xameleonlar” deb ataydi. Axir xameleonlar ham atrof-muhitga monand ravishda o‘z tusini o‘zgartiradi-da. Devalening xulosalashicha, insonlar o‘zgarish qachon sodir bo‘lishini bilishmaydi. Bunday o‘zgarish tabiatan dinamik bo‘lib, ular ba’zan yoshdagi farq, ta’lim darajasi va chet tili hayajoni sabab o‘zlarini boshqacharoq his qilishlari mumkin. Ushbu nuqtayi nazar, albatta, tilshunoslik va psixolingvistika tadqiqotlarida muhim ahamiyatga ega, chunki ko‘p tillilik shaxsning ijtimoiy va madaniy muhitga moslashuvchanligini oshiradi. Biroq ushbu jarayon har doim ham faqat bexabar yoki avtomatik ravishda sodir bo‘lmaydi. Ba’zi hollarda, shaxslar bir tildan ikkinchisiga o‘tishda o‘z identikligini ongli ravishda boshqarishlari mumkin. Masalan, kommunikativ strategiyalar, kod almashtirish yoki ijtimoiy maqomga moslashish uchun til tanlash shaxsning ongli qarorlariga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli,

identiklikning o‘zgarishi nafaqat tabiiy jarayon, balki ijtimoiy va psixologik omillar ta’sirida ongli ravishda amalga oshishi mumkinligini ham e’tiborga olish lozim.

Ko‘p tilli shaxsni ta’riflashda V.Li va M.Moyer “xoh faol (gapisirish yo yozish orqali), xoh nofaol (eshitish yo o‘qish orqali) bo‘lsin birdan ortiq tilda muloqot qila oluvchi har kim”²³ izohini qo‘llagan bo‘lsa, Yevropa Komissiyasi (European Commission) ko‘p tillilikni “jamiyatlar, institutlar, guruhlar va shaxslarning kundalik hayotda doimiy ravishda birdan ortiq tilni qo‘llash qobiliyati” deya baholab, uning miqiyosini nafaqat xususiy, balki umumiy darajada ham belgilash zarurligini ifoda etdi.

Chet tilida gapirganda o‘zini boshqa insondek his qilish, ya’ni boshqacha identiklikni namoyon qilish holati haqida R.Uilson 2008-yilda²⁴ 1414 nafar bilingval fikrini o‘rgandi. Unga ko‘ra, ishtirokchilarning uchdan ikki qismi savolga tasdiq javobini berishgan. Qatnashchilarning 15 foizi ushbu so‘roqqa inkor bilan javob qaytarishgan bo‘lsa, 10 foizi noaniq javob qaytargan yo umuman javob bermagan. Shuningdek, so‘rovnomada ishtirokchilar boshqa tilda gapirganda o‘zlarida kuzatiladigan ba’zi o‘zgarishlarni ham sanab o‘tadilar: ko‘pchilik chet tilida gapirganda o‘zlariga ishonchi ortib, ijtimoiy munosabatlarda o‘zlarini erkinroq his qiladilar, tana tili, xarakter va ovozda o‘zgarish kuzatilishi barobarida boshqa niqobni kiygandek yo boshqa rolni o‘ynay boshlagandek ifodalangan o‘zgarishni his qilisharkan. Statistik tahlilga ko‘ra, ayol qatnashchilar va ta’lim darajasi yuqori bo‘lganlar har bir tilda har xil identiklikka egadek his qilishlari haqida ma’lum qilishlari darajasi yuqori bo‘lgan²⁵. Ayol ishtirokchilarning chet tilida gapirganda o‘zlarini boshqacharoq his qilishlari ko‘rsatkichlari baland qayd etilgan yana bir kuzatishlar Ozanska-Ponikvianing 2010-yildagi tadqiqotida ham qayd etilgan. Xulosa qilinadiki, til va identiklik munosabati o‘zaro faol ta’sirga ega, biri ikkinchisini o‘zgartira oladigan, biri ikkinchisining tanlanishiga asos bo‘la oladigan munosabatdir.

Dissertatsiyaning **“Lisoniy identiklik shakllanishi va namoyon bo‘lishiga ta’sir etuvchi omillar tasnifi hamda O‘zbekiston sharoitida tadbipi”** nomli ikkinchi bobi 3 fasldan iborat bo‘lib, unda lisoniy identiklik shakllanishi va namoyon bo‘lishida ta’sir etuvchi makro hamda mikroomillar klassifikatsiyasi, O‘zbekistondagi til vaziyatiga oid ma’lumotlar hamda til siyosatining davlat tili va xorijiy tillarga nisbatan yondashuvi o‘z ifodasini topgan.

Bobning **“Lisoniy identiklik shakllanishi va namoyon bo‘lishida ta’sir etuvchi omillar”** deb nomlangan faslida sotsiolingvistik sharoitlarni belgilovchi makroomillar hamda shaxsiy tajriba va individual omillarga asoslangan mikroomillar aniqlangan.

²³ Li W., Moyer M. (Eds.). The Blackwell Handbook of Research Methods on Bilingualism and Multilingualism. – Oxford: Blackwell, 2008. – P. 4.

²⁴ Wilson R. Foreign Languages: A Guide for the Inhibited // The Language Learning Journal, 2008. – № 36 (1). – P. 113.

²⁵ Dewaele J.-M., Nakano S. Multilinguals’ perceptions of feeling different when switching languages // Journal of Multilingual and Multicultural Development, 2012. – № 34 (2). – P. 4.

Ko‘p tilli o‘zbek talabalari lisoniy identikligiga ta’sir etuvchi makroomillar tasnifi

Sotsiolingvistik omillar	<ul style="list-style-type: none"> – O‘zbek tilining rasmiy til sifatidagi maqomi va boshqa tillarning (masalan, rus, ingliz) rasmiy domenlardagi o‘rni. – Jamiyatning turli tillarga bo‘lgan munosabati va tillarning ushbu jamiyatda qanday obro‘ga egaligi. – Mahalliy hamjamiyat ishlatiladigan turli tillarning tarqalish darjasasi va konteksti. – Do‘stlar va tengdoshlarning biror tilni afzal ko‘rish hamda undan foydalanishga ta’siri.
Psixologik omillar	<ul style="list-style-type: none"> – Talabalar o‘zlarining lingvistik identikligini qanday idrok etishlari. – Ko‘p tilli bo‘lish bilan bog‘liq bo‘lgan ishonch va o‘z-o‘zini hurmat qilish. – Bir nechta tillarni o‘rganish va undan foydalanishda shaxsiy qiziqish hamda zavq singari ichki motivatsiyaga egalik. – Mansab imkoniyatlari yoki ijtimoiy tan olinish kabi tashqi rag‘batlar motivatsiyasi.
Ta’limiy omillar	<ul style="list-style-type: none"> – Tillar qanday o‘rgatilishi va ta’lim tizimida turli tillarga qaratilayotgan e’tibor masalasining o‘quv rejasida aks etishi. – Turli fanlarni o‘qitish uchun ishlatiladigan asosiy til(lar). – O‘qituvchilarning turli tillarni bilishi va ularga munosabati. – Ko‘p tillilikni qo‘llab-quvvatlovchi yoki unga to‘sinqlik qiluvchi pedagogik yondashuvlar. – Turli tillardagi kitoblar, ommaviy axborot vositalari va boshqa o‘quv materiallaridan foydalanish imkoniyati.
Madaniy omillar	<ul style="list-style-type: none"> – Oila muhitida qanday tillar qo‘llanilishi va ularning madaniy merosni saqlashdagi roli. – Madaniy tadbirlar, bayram va udumlarning tilni qo‘llash hamda saqlashga ta’siri. – Televizor, filmlar, musiqa va internet singari media vositalarining turli tillarga ta’siri. – Ommaviy madaniyat shaklidagi global va mahalliy madaniy tendentsiyalarning ma’lum tilni afzal ko‘rish darajasiga ta’siri.
Iqtisodiy omillar	<ul style="list-style-type: none"> – Ishga joylashish imkoniyatlarini yaxshilash uchun ma’lum tillarni bilish talabi. – Ko‘p tilli bo‘lishning iqtisodiy foydalari, daromadni ko‘paytirish orqali iqtisodiy darajani oshirish imkoniyatlari. – Oilaning daromadi va ijtimoiy-iqtisodiy holatining sifatli til ta’limi hamda resurslaridan foydalanishga ta’siri.
Siyosiy omillar	<ul style="list-style-type: none"> – Muayyan tillardan foydalanishni rag‘batlantiruvchi yoki cheklovchi hukumat tashabbuslari va qonunlari. – Geosiyosiy munosabatlarning til o‘rganish ustuvorliklariga ta’siri (masalan, tarixiy aloqalar tufayli rus tili, globalashuv tufayli ingliz tili).
Globalashuv va texnologik omillar	<ul style="list-style-type: none"> – Global miqyosdagi ma’lumotlar almashinuvining tilni o‘rganish va undan foydalanishga ta’siri. – Migratsiya va xalqaro sayohatning tilni bilish hamda o‘zlashtirishga ta’siri. – Til o‘rganish uchun ilg‘or vositalar va platformalardan foydalanish (masalan, til ilovalari, onlayn kurslar).

Ko‘p tilli shaxslar lisoniy identekligining sotsiolingvistik aspektini o‘rganishda, shuningdek, *muhit, hudud, kasb, gender, yosh, ijtimoiy qatlam, etnos, tilni bilish darjası, ijtimoiy normalar, munosabatlarda ustunlik dinamikasi, shaxsiy moyillik, til iyerarxiyasi, stereotiplar* va *individual tajriba* hamda shaxsiy qarashlarga bog‘liq mikroomillar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bobda, shuningdek, lisoniy identiklik shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan omillardan biri — mamlakatdagi til vaziyati tadqiq etilib, statistik tahlillar natijasida O‘zbekistonning lisoniy vaziyat, xususan, o‘zbek, rus, ingliz, tojik, qozoq va boshqa tillarning sotsiolingvistik dinamikasi o‘chib berilgan.

S.A.Fergyusonning²⁶ ta’rificha, “lisoniy vaziyat” deyilganda, muayyan bir vaqtda, muayyan bir joyda qanday tildan foydalilaniladi, tillarning soni, qanday turdagilari til ushbu hududda ishlataladi, qancha odam, qanday sharoitda bu tilda gaplashadi, ushbu jamoa a’zolarining bu tilga bo‘lgan munosabati, umuman, tilning qo‘llanish doirasi haqidagi masalalar tushuniladi²⁷. Ushbu faslda O‘zbekistonning til vaziyati ekzogloss darajada muvozanatsizlik xususiyati bo‘yicha o‘rganilgan.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ta’lim tili hisoblangan 7 ta til bo‘lib, bular: o‘zbek, rus, qoraqalpoq, tojik, qozoq, qirg‘iz va turkman tillaridir. 2023-2024-o‘quv yilida O‘zbekiston umumiy o‘rtalim maktablarida jami o‘quvchilar soni 6476091 nafarni tashkil etgan va o‘qitish tillari bo‘yicha quyidagicha taqsimotga ega bo‘lgan²⁸.

2-jadval

**2023-2024-o‘quv yilida O‘zbekiston umumiy o‘rtalim maktablarida
jami o‘quvchilar soni o‘qitish tillari bo‘yicha taqsimoti**

O‘zbek tilida ta’lim oladigan o‘quvchilar soni	5 549 775 nafar
Rus tilida ta’lim oladigan o‘quvchilar soni	666443 nafar
Qoraqalpoq tilida ta’lim oladigan o‘quvchilar soni	126316 nafar
Tojik tilida ta’lim oladigan o‘quvchilar soni	64902 nafar
Qozoq tilida ta’lim oladigan o‘quvchilar soni	50439 nafar
Qirg‘iz tilida ta’lim oladigan o‘quvchilar soni	7431 nafar
Turkman tilida ta’lim oladigan o‘quvchilar soni	10785 nafar

Qoraqalpog‘iston O‘zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren demokratik respublikadir. 2024-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining doimiy aholisi 36 963 262 nafarni tashkil etib²⁹, undan 2 008 781 nafarini Qoraqalpog‘iston

²⁶ Ferguson C.A. Language Structure and Language Use. – Redwood City, CA: Stanford University Press, 1971. – 327 p.

²⁷ Usmonova Sh., Bekmuxamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika. – Toshkent: Universitet, 2014. – B. 52.

²⁸ RINAoIx-CiGKejDQLZRU9vbJnUEpjWkU.pdf (uzedu.uz) [Murojaat sanasi: 28.05.2024]

²⁹ [Foydali ma'lumotlar \(stat.uz\)](https://Foydali ma'lumotlar.stat.uz) [Murojaat sanasi: 28.05.2024]

Respublikasi aholisi tashkil etadi³⁰. Qoraqalpog‘istonda qoraqalpoq va o‘zbek tillari davlat tillari hisoblanadi. Etnik tarkibining 11,8 %ini qozoqlar tashkil etgani³¹, qoraqalpoq tilining qozoq tiliga o‘xshab ketishi va bu ikki millatning ushbu hududda faol quda-andachilik munosabatlariga kirishgani sababli ko‘pchilik qoraqalpoqlar qozoq tilida ham erkin muloqot qila olishadi.

Rus tili ta’lim tili sifatida O‘zbekistonda davlat tilidan keyin turuvchi yetakchi til hisoblanadi. 67 mingga yaqin o‘quvchilar umumta’lim fanlarini ushbu tilda o‘zlashtiradilar. Shu tilda erkin muloqot qilib, o‘z fikrlarini ifoda etishadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati raisi Tanzila Norboyevaning so‘zlariga ko‘ra, 10 mingdan ortiq umumiyligi ta’lim muassasasida rus tili majburiy o‘quv dasturiga kiritilgan. Mamlakatda Rossiyaning yetakchi universitetlarining 14 ta filiali ochilgan bo‘lsa, Rossiyadagi oliy o‘quv yurtlarida o‘zbekistonlik 50 mingga yaqin talaba tahsil olmoqda³².

2023-2024-o‘quv yili statistikasiga ko‘ra, yurtimizda 242ta umumiyligi o‘rta ta’lim maktabida ta’lim tili tojik tilidir. Bundan 96 ta maktabda faqat tojik tilli sinflar bor bo‘lsa, 146 ta maktab aralash tilli maktab hisoblanadi³³. Termiz, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro davlat universitetlari, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti hamda Chirchiq davlat pedagogika institutida tojik guruhlari mavjud³⁴.

O‘zbekistonda qo‘llanishda bo‘lgan tojik tili turkiy tillar bilan aralashuv va birlashuvni o‘zida aks ettiradi. O‘zbekistondagi tojikzabonlar nutqida ruscha so‘zlar ham faol aralashtiriladi. Samarqand va Buxoro kabi joylardagi ko‘plab tojik tilida so‘zlashuvchi aholi tilga o‘zbek tilidagi elementlarni kiritgan holda gaplashadi.

O‘zbekistonda qozoq millatiga mansub aholining aksariyati Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent viloyati va Janubiy Qozog‘iston bilan chegaradosh hududlarda istiqomat qiladi. Mamlakatdagi qozoqlar umumiyligi aholi sonining taxminan 2,5 foizini tashkil qiladi. O‘zbekistonda qozoq tili ta’lim tizimida ham o‘z o‘rniga ega. Mamlakatda qozoq tilida ta’lim beradigan 358 ta maktab mavjud³⁵. Qozoq tilida ta’lim oladigan o‘quvchilar soni bo‘yicha Toshkent viloyati (22376 nafar) ro‘yxatda yetakchilik qilib, natijalar qozoq tilining O‘zbekiston hududida eng keng tarqalgan hududi Toshkent viloyati hududiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi (18975 nafar) va Navoiy viloyati (8122 nafar) qozoq tilida tahsil oluvchi o‘quvchilar soni bo‘yicha yetakchi uchlikni hosil qiladi³⁶.

2024-2025-o‘quv yili statistikasiga ko‘ra, Respublikamizda turkman tilli sinflar 41 ta maktabda mavjud bo‘lib, ularidan 20 tasi aralash tilli maktablar, 21 tasi

³⁰ [Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi \(qrstat.uz\)](https://qrstat.uz/) [Murojaat sanasi: 28.05.2024]

³¹ [Qoraqalpog‘iston Respublikasi \(uzpedia.uz\)](https://uzpedia.uz/) [Murojaat sanasi: 28.05.2024]

³² <https://www.qalampir.uz/uz/news/uzbekiston-rus-tilining-ma-naviy-k-adriyatlarini-asrashga-tayyer-norboyeva-93327> [Murojaat sanasi: 28.05.2024]

³³ https://uzedu.uz/uploads/downloads/LaGHCZ9FmTAuyjYictKg2yyDW-yWsn_O.pdf [Murojaat sanasi: 28.05.2024]

³⁴ <https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-nechta-tojik-maktablari-bor> [Murojaat sanasi: 28.05.2024]

³⁵ https://uzedu.uz/uploads/downloads/LaGHCZ9FmTAuyjYictKg2yyDW-yWsn_O.pdf [Murojaat sanasi: 28.05.2024]

³⁶ <https://uzedu.uz/uploads/downloads/RINAoIx-CiGKejDQLZRU9vbJnUEpjWkU.pdf> [Murojaat sanasi: 28.05.2024]

faqat turkman tilli sinflardan tashkil topgan maktablardir³⁷. Umumiy hisobda 10785 nafar o‘quvchi Qoraqalpog‘iston Respublikasi (10290) va Xorazm viloyati (495) hududida joylashgan turkman tilli maktablarda tahsis olishadi. Qoraqalpoq davlat universitetida turkman filologiyasi mutaxassislari, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutida turkman tili o‘qituvchilari tayyorlanmoqda³⁸.

Shuningdek, O‘zbekistonda 47 ta qirg‘iz tilli maktab mavjud. Ulardan 26 tasi aralash tilli maktablar, 21 tasi faqat qirg‘iz tilli sinflardan iborat maktablardir³⁹. Andijon, Jizzax, Namangan, Farg‘ona va Toshkent viloyatlari hududida joylashgan ushbu ta’lim muassasalari jami 7431 nafar o‘quvchiga qirg‘iz tilida ta’lim berib kelmoqda. Andijon davlat universitetida “Ona tili va adabiyoti: qirg‘iz tili va adabiyoti” yo‘nalishi mavjud⁴⁰.

Chet tili darslari borasida ingliz tili eng ko‘p miqiyosda o‘qitiladigan tildir. U Respublika miqiyosida 9924 ta maktabda o‘tiladi. Nemis tili esa, bu borada ikkinchi o‘rinda bo‘lsada, uning ingliz tili o‘qitilishi bilan nisbati orasida katta tafovut mavjud (901ta maktabda). Shuningdek, Respublikada fransuz tili (581ta maktabda) va boshqa tillar (47ta maktabda) ham chet tili sifatida o‘qitiladi⁴¹.

2022-yil o‘tkazilgan ingliz tili bo‘yicha ko‘p darajali test sinovlari yillik hisoboti natijalariga ko‘ra, jami 45256 nafar talabgorning 28 % (12592 nafar)ini erkaklar, 72 % (32663 nafar)ini ayollar tashkil etgan. Bu O‘zbekistonda ingliz tilini o‘rganishda ayollar erkaklarga nisbatan ancha faol ekanini anglatadi. Ingliz tili bo‘yicha mutaxassislар tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarida ham ushbu trend talabalarning asosiy qismini ayollar tashkil etishi bilan yaqqol ko‘zga tashlanadi. Test qatnashchilarining yoshi nuqtayi nazaridan 20 yoshdan kichik til o‘rganuvchilari eng katta qatlamni tashkil etgan bo‘lsa (44,7 %), 21-30 yosh oralig‘idagilar faollikda keyingi o‘rinni egallagan (37,7 %).

Bobning “O‘zbekistonda til siyosati: davlat va xorijiy tillarga munosabat” nomli 3-faslida til siyosatiga oid qonunchilik hujjatlari ma’no-mazmuni va ular asosida olib borilayotgan islohotlar hamda erishilgan natijalar o‘ganilgan. Sa’y-harakatlar o‘z samarasini bera boshladi. O‘zbekistonlik bir qancha IELTS nomzodlari birin-ketin ingliz tilini ekspert darajasida bilishini isbotladi. 2024-yilda IELTS imtihonidan 5.5 va undan yuqori ballni qo‘lga kiritgan O‘zbekistonliklar soni 53 ming nafarni tashkil etgani hamda bu to‘rt yil avvalgi ko‘rsatkichdan 5 barobar yuqoriligi fikrimiz isbotidir. 2024-yilda 8.5 va 9 ballarni qayd etganlar soni 332 nafarga yetgan⁴².

Dissertatsiyaning uchinchi bobи “**Ko‘p tilli o‘zbek talabalarida lisoniy identiklikning sotsiolingvistik aspekti empirik tahlili**” deb nomlanib, unda tadqiqotning amaliy qismi natijalari bayon etilgan. Bob avvalida ko‘p tilli o‘zbek talabalarida lisoniy identiklikning sotsiolingvistik empirik tadqiqi metodologiyasi

³⁷ <https://www.uzedu.uz/y3/page/statistics> [Murojaat sanasi: 05.10.2025]

³⁸ <https://parliament.gov.uz/articles/831> [Murojaat sanasi: 05.10.2025]

³⁹ <https://www.uzedu.uz/y3/page/statistics> [Murojaat sanasi: 05.10.2025]

⁴⁰ <https://dt.adu.uz/uz/news/article/799> [Murojaat sanasi: 05.10.2025]

⁴¹ EEMJjhpdFhrlUzEVNE3GYf3wUk4umzFv.pdf (uzedu.uz) [Murojaat sanasi: 28.05.2024]

⁴² <https://kun.uz/news/2024/12/14/ozbekistonlik-yoshlarning-ieltsdagi-natijalari-sezilarli-yaxshilandi> [Murojaat sanasi: 19.12.2024]

bayon etilib, empirik tadqiqot qanday jarayonlarni qamrab olgani, bunda qanday metodlardan foydalanilgani va tadqiqot ishtirokchilari haqidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Ushbu empirik tadqiqotda O'zDJTuning ingliz filologiyasi fakulteti 1-bosqich 2302, 2306, 2331 va 2332-guruhlarda tahsil oluvchi 55 nafar ko'p tilli o'zbek talabalari ishtirok etdi. Ularning asosiy qismi 18-19 yoshda va ayol jinsli talabalardan iborat; o'zbek va qoraqalpoq millati vakillari respondentlar sonining 80 foizini tashkil qiladi.

3-jadval

Tadqiqot ishtirokchilarining lingvistik repertuaridagi tillarning mavqeyi va faollik darajasi xususidagi ma'lumotlar

	O'zbek tili	Rus tili	Qoraqalpoq tili	Qozoq tili	Ingliz tili	Qirim-tatar tili	Ozarkayjon	Koreys tili	Tojik tili
Ona tili	29	9	13	3		1			
Ikkinchi til	5	46	1	2			1	1	1
Chet tili					55				

4-jadval

Tadqiqot ishtirokchilarining ingliz tilini bilish darajasini tasdiqlovchi sertifikatga egaligi haqidagi ma'lumotlar

IELTS	Milliy sertifikat	Sertifikat mavjud emas
28 nafar talabada bor (5.5 – 2 ta; 6 – 5 ta; 6.5 – 11 ta; 7 – 7ta; 7.5 – 3ta)	20 nafar talabada bor (CEFR B2)	7 nafar

5-jadval

Tadqiqot ishtirokchilarining nechta tilni bilishi (turli darajada) haqidagi ma'lumotlar

3 ta tilni biladigan talabalar soni	16 nafar
4 ta tilni biladigan talabalar soni	21 nafar
5 ta tilni biladigan talabalar soni	15 nafar
6 ta tilni biladigan talabalar soni	2 nafar
7 ta tilni biladigan talabalar soni	1 nafar

Ma'lumotlar yig'ishda tadqiqot ishtirokchisi haqidagi umumiy ma'lumotlar anketasi, so'rovnomalar, til portreti silueti vazifasi, tillar va tuyg'ular haqida erkin matn yozish vazifasi, "O'zbek, rus va ingliz madaniy va lisoniy identikligi mening tasavvurimda: stereotiplar hamda shaxsiy qarashlarim" nomli tavsifiy bayon usuli, yakka va jamoaviy intervyular, etnografik kuzatuv singari metod va vositalardan, ularni tahlil qilishda dastlabki kodlash, o'xshashlikka asoslangan kodlash, tanlangan

kodlash singari tahlil bosqichlari va dasturiy vositalardan google forms natijalari, SPSS dasturi imkoniyatlaridan foydalanildi.

So‘rovnoma ishtirok etishda til tanlovi nuqtayi nazaridan 4 nafar talaba o‘zbek tilida, 33 nafar talaba rus tilida, 11 nafar talaba ingliz tilida javob bergan. 7 nafar talaba o‘z xohishiga ko‘ra so‘rovnoma ishtirok etmagan.

6-jadval

So‘rovnoma ishtirok etgan respondentlarning O‘zbekiston ma’muriy-hududiy birliklari bo‘yicha taqsimoti

Toshkent shahar	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	Farg‘ona viloyati	Toshkent viloyati	Buxoro viloyati	Samarqand viloyati	Xorazm viloyati	Qashqadaryo viloyati	Namangan viloyati	Andijon viloyati	Sirdaryo viloyati
12 nafar	9 nafar	6 nafar	5 nafar	3 nafar	3 nafar	3 nafar	2 nafar	2 nafar	2 nafar	1 nafar

So‘rovnoma savollariga berilgan javoblar yuzasidan olingan umumiy ko‘rsatkichlar quyidagicha: O‘zbek tili uyda tez-tez qo‘llanadi (35,4 % “juda tez-tez”), lekin ta’lim muassasalarida undan kamroq foydalanish kuzatiladi, bu yerda “kamdan-kam hollarda” va “ba’zan” (25 % hamda 29,2 %) javoblari yuqori. Ko‘pchilik o‘zbek tilini madaniy identiklagini qismi sifatida ko‘rsa-da, 45,8 % neytral munosabat bildirgan va 18,8 % qisman qo‘shilgan. O‘zbek tilidan foydalanganda faxrlanish hissi kamroq uchraydi. O‘zbek tilini rivojlantirish istagi nisbatan pastroq; respondentlarning faqat 12,5 % “xohlayman” va 8,3 % “juda xohlayman” deb javob bergan.

Rus tili ta’lim va ijtimoiy muhitlarda juda faol ishlatiladi, ayniqsa “juda tez-tez” deb javob berganlar ta’limda 56,3 % va ijtimoiy munosabatlarda 45,8 % tashkil etadi. Rus tilida gapirishni ko‘pchilik yaxshi ko‘radi (75 %), shuningdek, 89,6 % rus tilini imkoniyatlar ochuvchi til deb biladi. Rus tilini rivojlantirish istagi ham yuqori, 77,1 % respondent “juda xohlayman” deb javob bergan, bu o‘zbek tiliga nisbatan ancha yuqori motivatsiyani ko‘rsatadi.

Ingliz tili ko‘proq ta’lim muassasalarida ishlatiladi (43,8 % juda tez-tez), uy va norasmiy muloqtlarda esa kamdan-kam qo‘llanadi. Ingliz tilini respondentlarning 72,9 % yaxshi ko‘radi va 87,5 % uni kelajagi uchun foydali deb hisoblaydi. Ingliz tilini rivojlantirishga motivatsiya juda yuqori, respondentlarning 91,7 % bu til ko‘nikmalarini rivojlantirishni juda xohlaydi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, rus va ingliz tillariga nisbatan motivatsiya hamda qo‘llash chastotasi ta’lim va ijtimoiy munosabatlarda, ayniqsa, yuqori. O‘zbek tiliga nisbatan munosabat neytral yoki pasaygan, faqat uy sharoitida faol ishlatiladi.

Til silueti portreti vazifasiga ko‘p tilli o‘zbek talabalarining bergan javoblarini tahlil qilar ekanmiz quyidagi natijalar va xulosalarni qo‘lga kiritdik:

– Ingliz tili talabalarining 56 % tomonidan ishlatilgan, bu esa, ingliz tilining bu talabalar guruhi orasida yozma nutqda asosiy yoki eng qulay til sifatida qabul qilinishini ko‘rsatadi.

– Rus tili 26 % talaba tomonidan ishlatilgan bo‘lsa, ingliz va rus tillari orasida kodlar aralashuvi 18 % talaba tomonidan qo‘llanilgan. Bu talabalar orasida ikki tilda birgalikda muloqot qilish va bu tillar orasida kodlar aralashuvi amaliyotining keng tarqalganligini ko‘rsatadi.

– O‘zbek tili hech qanday javobda ishlatilmagan, biroq izoh matnlarida o‘zbek tilining talabalar hayotidagi ahamiyati yuqori baholangan. Yozma nutqda ingliz va rus tillarining faol qo‘llanilishi talabalar akademik faoliyatida rus hamda ingliz tillarida yozish malakalarini shakllantirishga qaratilgan darslarning ko‘p bo‘lgani, o‘zbek tili esa faqat og‘zaki muloqot tili sifatida, yoxud nisbatan kam soatli o‘zbek tili darslari ko‘rinishida o‘qitilgani bilan bog‘liq deb xulosalaymiz.

– Talabalar orasida o‘zbek, rus va ingliz tillaridan tashqari boshqa tillarni o‘rganish hamda ishlatishga bo‘lgan qiziqish baland. Turk, qoraqalpoq, qozoq va fransuz tillari shular jumlasidandir.

– Qoraqalpog‘istonlik talabalar qoraqalpoq va qozoq tillarining o‘xshashligi tufayli qozoq tilini tabiiy ravishda o‘zlashtirganlarini ta’kidladilar. Bu mintaqaviy til dinamikalarining til o‘rganishga va foydalanishga ta’sirini ko‘rsatadi.

– Ko‘plab qizlar turk tilini yaxshi ko‘rishlarini va uni o‘rganishayotganini bildirdilar. Bu trend turk tiliga bo‘lgan madaniy va lingvistik qiziqishni aks ettiradi.

– Respondentlarning asosiy qismi yosh qizlar bo‘lgani, ular moda va romantik hissiyotlarni yaxshi ko‘rgani uchun ushbu mavzular bilan bog‘liqlik stereotipiga ega til sifatida fransuz tili ko‘plab javoblarda tilga olingan.

“Tillar va tuyg‘ular haqida erkin matn yozish vazifasi tahlili”ga ko‘ra, o‘zbek tili respondentlar tomonidan ko‘pincha ijtimoiy va emotsiional muloqotlar, ayniqsa, hazillashish va g‘iybatlashish kontekstlarida qulay vosita sifatida baholanadi. Respondentlar o‘zbek tilida muloqot qilganda tarbiyaviy chegaralarni saqlashga intilishadi, bu esa, tilning madaniy me’yorlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Aksincha, rus tili ko‘proq jiddiy yoki salbiy emotsiyalar paytida avtomatik qo‘llanila boshlaydi (masalan, jahl chiqqanda yoki so‘kish so‘zları bilan). Ko‘plab talabalar fikr yuritish va ichki monologlarda rus tilidan foydalanishlarini bildirganlar hamda bu ular hayotida rus tilining kognitiv jarayonlardagi faol qo‘llanilishini ko‘rsatadi.

“O‘zbek, rus va ingliz madaniy va lisoniy identikligi mening tasavvurimda: stereotiplar hamda shaxsiy qarashlarim” nomli tavsifiy bayon tahliliga ko‘ra, respondentlar o‘zbek jamiyatini boy an'analar, mehmondo‘stlik va kuchli oilaviy aloqalar bilan baholashgan, ammo gender tengsizligi va ijtimoiy notenglik muammolariga e’tibor qaratgan. Ruszabon jamiyat esa ilmiy va madaniy qiziqish, aniq fikr bildirish qobiliyati bilan ajralib tursa-da, byurakratiya va egoistlik kabi salbiy tomonlar ham tilga olingan. Ingliz tilini o‘rganish talabalarining shaxsiy rivojlanishiga va o‘zini anglash jarayoniga ijobjiy ta’sir ko‘rsatgan. Ular bu til orqali mustaqillik va qulaylikni his qilishgan. Natijada, talabalarning lisoniy identikligi boyib, ular yangi tillarni o‘rganishga va turli madaniyatlarni o‘zlashtirishga qiziqish bildirganlar.

Yakka va jamoaviy intervyular tahlili xulosalari talabalar o‘zbek, rus va ingliz tillarini qanday o‘rganganlari, ushbu tillarni qaysi kontekstda ishlatishlari va tillarga bo‘lgan munosabatlarini yoritadi. Talabalar o‘zbek tilini asosan ijtimoiy muloqot orqali, rus tilini maktab ta’limi va ommaviy axborot vositalari yordamida, ingliz

tilini esa, maktab darslari va qo'shimcha kurslar orqali o'rganganlar. Ingliz tilini o'rganish motivatsiyasi ko'pincha xalqaro sertifikat olish, chet elga chiqish va turistlar bilan muloqot qilish istagi bilan bog'liq. Millati va ona tili qaysiligidan qat'i nazar qatnashchilarning ko'pchiligi rus tili ular uchun fikrlash hamda gaplashishga eng qulay til ekanini ta'kidlashdi. Ko'plab talabalar uchun ingliz tilini o'rganish hayotlarida chuqur iz qoldirgan, muhim tajriba bo'lgan. Ular ingliz tilida fikrlash, gaplashish va o'zlarini ifodalash jarayonida qulaylik hamda mustaqillik his qilgan. Til o'rganishda ustozning roli haqida munosabat bildirilarkan ko'plab talabalar o'z til o'rganish amaliyotlarida ingliz tili ustozlari yosh ayollar bo'lgani, biriga endi o'rganganida u onalik ta'tiliga ketib o'rniga boshqasi kelgani, bu jarayon muttassil davom etganini tilni sifatli o'rganishda salbiy ta'sir ko'rsatgan omillardan deb ko'rsatishdi.

XULOSA

1. Identiklik – bu shaxsning o'zini anglash, o'zligini tan olish va uni atrofdagilar tomonidan qanday baholanishi jarayonlarini qamrab oluvchi murakkab tushunchadir. Identiklik dinamik, ijtimoiy va ko'p sonlilikka asoslangan bo'lib, vaqt hamda makon bo'ylab doimiy ravishda o'zgarib turadi va insonning o'zini biror guruh yoki jamiyatga tegishli his qilishiga yordam beradi. Uning etnik, irqiy, milliy, gender va lisoniy kabi turlari mavjud. Lisoniy identiklik esa, shaxs yoki guruhning o'zini ma'lum til(lar) orqali ifodalashi, shu til(lar) bilan o'zaro aloqadorligini his qilishi va bu til(lar)ni ijtimoiy hamda madaniy identikligining ajralmas qismi sifatida qabul qilishida aks etadi.

2. Ko'p tilli shaxslar identikligi ko'p qatlamli bo'lib, ular so'zlashuv tiliga qarab lisoniy identikligida o'zgarishlar ko'zga tashlanishi, ko'p tilli har bir til orqali o'zining turli jihatlarini namoyon etishi mumkin. Shaxsning qaysi tilni tanlashi – bu faqat lingvistik tanlov emas, balki uning ichki identikligini, hissiy holatini, tilga va suhbat kontekstiga bo'lgan munosabatini aks ettiruvchi jarayondir.

3. Ko'p tilli o'zbek talabalari lisoniy identikligiga ta'sir etuvchi omillar makro va mikro darajada murakkab o'zaro bog'liqlikka ega. Makroomillar sotsiolingvistik, psixologik, ta'limiy, madaniy, iqtisodiy, siyosiy, globallashuv va texnologik jihatlarni qamrab oladi. Shu bilan birga, hudud, kasb, gender, yosh, ijtimoiy qatlam, etnos, til iyerarxiyasi, stereotiplar va shaxsiy qarashlar singari mikroomillar ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, ko'p tilli shaxsning lisoniy identikligi shakllanishi va rivojlanishida katta rol o'ynaydi.

4. O'zbekistondagi bugungi til vaziyati ko'p tillilikning murakkab va tarixiy shakllangan modelini aks ettiradi. O'zbek tili davlat tili sifatida markaziy mavqega ega bo'lsa-da, rus, ingliz, tojik, qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, turkman kabi tillar ijtimoiy, madaniy va ta'limiy sohalarda faol ishlatiladi. Bu holat mamlakatning etnik tarkibi, mintaqaviy joylashuvi, migratsiya oqimlari, xalqaro integratsiya va ta'lim siyosatiga bog'liq holda shakllangan. Rus tili hali ham ko'plab sohalarda nufuzli til sifatida qabul qilinmoqda, ingliz tilining esa, yoshlar orasida o'sib borayotgan mavqeyi globallashuv jarayoni bilan chambarchas bog'liq. Qoraqalpog'iston va ayrim viloyatlarda mintaqaviy tillarning saqlanishi hamda faol ishlatilishi

mamlakatda lingvistik xilma-xillik va millatlararo totuvlikni mustahkamlovchi muhim omil hisoblanadi.

5. O'zbekiston Respublikasining til siyosati milliy birlikni mustahkamlash, ijtimoiy integratsiyani ta'minlash va global jarayonlarga moslashishga qaratilgan kompleks hamda ko'p qirrali yondashuvni aks ettiradi. O'zbek tili davlat tili sifatida jamiyatda birlashtiruvchi omil, milliy identiklikning tayanch ramzi va rasmiy muloqot vositasi sifatida markaziy o'rinni egallaydi. Bu borada davlat tomonidan turli qonun hujjatlari, konsepsiylar va dasturlar ishlab chiqilgan. Boshqa tomonidan, ingliz tilining erta bosqichdan ta'limga joriy etilishi, xalqaro sertifikat tizimlarining qo'llab-quvvatlanishi mamlakatning globallashuvga ochiqligini ko'rsatadi. Rus tili esa, iqtisodiy, madaniy va siyosiy kontekstda hanuz dolzarb mavqeyini saqlab qolgan.

6. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, respondentlar orasida o'zbek tiliga nisbatan hissiy va identifikatsion bog'liqlik nisbatan past darajada (33,3 foiz). Bu holat rus tilida ta'lim olgan respondentlar til iyerarxiyasida o'zbek tilini nisbatan zaifroq subyektiv mavqega qo'yishlarini anglatadi. Boshqa tomonidan, rus tili respondentlarning deyarli barchasi tomonidan ijobjiy qabul qilinadi va 63,1 foiz uchun u identikligining muhim qismi hisoblanadi. Ingliz tiliga nisbatan ham ijobjiy hissiyotlar mavjud bo'lib, respondentlarning 60,4 foizi ingliz tilini o'z identikligining ajralmas qismi deb biladi. Bu esa, bir tomonidan, ta'lim, madaniyat va ijtimoiy statusning til tanloviga ta'sirini, boshqa tomonidan esa, davlat tilining shaxsiy identiklikda mustahkam o'rinni egallashi uchun ko'proq motivatsion va ijtimoiy tashabbus zarurligini ko'rsatadi.

7. Aniqlangan natijalar respondentlarning turli tillarga nisbatan munosabati nafaqat ularning kommunikativ funksiyasiga, balki chuqur hissiy va madaniy assotsiatsiyalarga ham bog'liqligini ko'rsatdi. Respondentlar rus tilini tartib-intizom, rasmiylik va talabchanlik timsoli sifatida qabul qilgan, bu esa, ushbu tilning ijtimoiy mavqeyi va ta'limdagi rolini aks ettiradi. O'zbek tili esa, moviy osmon, yashil tabiat va beg'uborlik kabi iliq hamda sof obrazlar bilan bog'lanib, ko'proq estetik va milliy-hissiy identiklikni ifodalaydi. Ingliz tili esa, global imkoniyatlar, xalqaro aloqalar va ochiqlik ramzi sifatida talqin qilingan bo'lib, bu tilning orzu va maqsadlar bilan uyg'unligini ko'rsatadi. Yana bir muhim jihat shuki, turk tiliga bo'lgan qiziqish ortib borayotgani kuzatildi, bu esa, mintaqaviy madaniy yaqinlik va media ta'sirining ifodasidir.

8. O'zbek tili, asosan, ijtimoiy-emotsional kontekstlarda, ya'ni hazillashish, norasmiy suhbatlar va madaniy jihatdan maqbul muloqot shakllarida qulay vosita sifatida ishlatilgani kuzatildi. Bu tilni qo'llashda respondentlar tarbiyaviy va axloqiy chegaralarni saqlashga intilganlari, o'zbek tilining madaniy me'yorlar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Rus tili bo'lsa, aksincha, salbiy yoki kuchli emotsiyalar paytida tez-tez avtomatik tarzda qo'llanilib, jahl, so'kish va tanqid kontekstlarida faol ishlatilgan. Bundan tashqari, ko'plab respondentlar fikr yuritish, ichki nutq va muammolarni hal qilishda rus tilidan foydalanishlarini ta'kidlagan bo'lib, bu ushbu tilning kognitiv jarayonlardagi faol ishtirokini ko'rsatadi. Xulosalash mumkinki, har bir til respondentlar hayotida ma'lum hissiy va intellektual funksiyalarni bajarayotgan ko'p funksiyali resurs sifatida shakllangan.

9. Respondentlarning stereotipik tasavvurlarida o‘zbek jamiyatni an’anaviy qadriyatlar, mehmondo‘stlik va oilaviy yaqinlik bilan baholansa-da, respondentlar gender tengsizligi va ijtimoiyadolatsizlik muammolarini ham qayd etishgan. Ruszabon jamiyat ilm-fan, madaniyat va mantiqiy fikrlash qobiliyati bilan ijobjiy baholangan bo‘lsa-da, byurokratiya, sovuqqonlik va shaxsiy manfaatni ustun qo‘yish kabi salbiy jihatlar ham tilga olingan. Ingliz tilli jamiyatga oid stereotiplar esa global madaniyat, xalqaro imkoniyatlar va ochiqlik timsoliga aylangan bo‘lib, ko‘plab respondentlar bu til orqali o‘zlarini global jamiyatning bir qismi sifatida his qilishlarini bildirgan.

10. Respondentlar orasida millatidan qat’i nazar, rus tili fikrlash va kundalik muloqot uchun eng qulay til sifatida e’tirof etilgan. Bu tilni o‘rganishda bolalikda ko‘rilgan teleko‘rsatuvlar, multfilmlar va maktab muhiti asosiy ta’sir omili bo‘lgan. Turistlarga yordam berish, tarjimonlik qilish yoki chet elliklar bilan muloqot qilish tajribalari talabalarda ingliz tiliga bo‘lgan amaliy ehtiyoj va motivatsiyani kuchaytirgan. Ta’lim tili rus tili bo‘lgan guruhlarda ingliz tili yo‘nalishida tahsil olayotgan ko‘p tilli o‘zbek talabalari lisoniy identikligi sotsiolingvistik jihatdan murakkab va ko‘p qatlamlari bo‘lib, O‘zbekistonning til siyosati va uning ko‘p tillilikka ta’siri, shuningdek, globallashuv hamda jamiyatdagi stereotipik tasavvurlar uning shakllanishi va namoyon bo‘lishida katta rol o‘ynaydi. Shunday qilib, ularning lisoniy identikligi nafaqat individual tajribalar, balki madaniy, ijtimoiy va siyosiy kontekstlarning murakkab o‘zaro bog‘liqligini aks ettiradi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**

**УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ МИРОВЫХ
ЯЗЫКОВ**

ИБРАХИМОВА ИРОДА БОБИР КИЗИ

**СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ЯЗЫКОВОЙ
ИДЕНТИЧНОСТИ У МНОГОЯЗЫЧНЫХ УЗБЕКСКИХ СТУДЕНТОВ**

10.00.11 – Теория языка. Прикладная и компьютерная лингвистика

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2024.3.PhD/Fil5191.

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете мировых языков.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.uzswlu.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Эргашева Гули Исмоил кизи
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Хамроева Шахло Мирджоновна
доктор филологических наук (DSc), доцент
Сиддикова Ирода Абдузухуровна
доктор филологических наук, профессор

Ведущая организация:

Гулистанский государственный университет

Защита диссертации состоится «16» января 2026 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 при Узбекском государственном университете мировых языков. (Адрес: 100138, г. Ташкент, Учтепинский район, ул. Кичик Халка Йули, дом 21А. Тел.: (99871) 230-12-91, факс: (998 71) 230-12-91; e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета мировых языков (зарегистрирована за № 218). (Адрес: 100138, г. Ташкент, Учтепинский район, ул. Кичик Халка Йули, дом 21. Тел.: (99871) 230-12-91, факс: (998 71) 230-12-91).

Автореферат диссертации разослан «30» декабря 2025 г.

(Реестр протокола рассылки № 6 от «30» декабря 2025 г.)

И.М. Тухтасинов

Председатель Разового научного совета по присуждению ученых степеней, доктор пед. наук, профессор

Х.Б. Самигова

Ученый секретарь Разового научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филол. наук, профессор

Ж.А. Якубов

Председатель Разового научного семинара при Разовом научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филол. наук, профессор



ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой лингвистике в последние годы вопросы многоязычия и языковой идентичности стали предметом широкого изучения и превратились в одно из важнейших направлений прикладной лингвистики. В условиях современной глобализации и технологического прогресса этому способствует интенсификация отношений между языками и культурами. В связи с процессами глобализации и миграции, а также проблемами культурной и социальной интеграции значение изучения многоязычия и языковой идентичности возрастает, поскольку увеличивается число многоязычных обществ и усиливается их влияние. В частности, идентификация многоязычных личностей, их языковой выбор и роль в межкультурных контактах рассматриваются в мировой лингвистике как важный объект исследования. Исследования касаемо соотношения многоязычия и языковой идентичности одновременно позволяют анализировать личностные, социальные и культурные аспекты данной проблемы.

В мировой лингвистике данная тема имеет большое значение не только в научном, но и в практическом отношении. В настоящее время многоязычные личности играют важную роль в межкультурной коммуникации. Многоязычные личности рассматриваются как область, подлежащая изучению с точки зрения развития межкультурных связей, понимания различий между языками и культурами, а также поиска своего места в обществе. В то же время изучение социальных, психологических и культурных факторов многоязычия и языковой идентичности является необходимым условием успешной интеграции в многоязычных и мультикультурных обществах.

В нашей стране из года в год увеличивается число многоязычных личностей, в частности молодёжи, свободно владеющей узбекским, русским и английским языками. Определение того, какую роль активно используемые языки играют в жизни молодого поколения, какой из них является доминирующим и как этот процесс влияет на личностную и социальную идентичность, относится к числу актуальных задач современности. Как подчёркивает Президент Республики Узбекистан, «ещё один важный вопрос, который всегда нас волнует, связан с нравственностью нашей молодёжи, её поведением, одним словом – с её мировоззрением. Сегодняшний мир стремительно меняется. Кто ощущает эти изменения больше всего? Молодежь. Пусть молодежь идет в ногу со временем. Но в то же время они не должны забывать свою идентичность. Призыв “кто мы, чьими великими потомками мы являемся” должен постоянно звучать в их сердцах и побуждать их оставаться верными своей сущности»¹. Таким образом, изучение языковой идентичности многоязычной узбекской молодёжи, её места и роли в обществе, а также определение социального и культурного значения этого процесса является одной из важных научных и практических задач современности.

¹ Шавкат Мирзиёев: Воспитание молодежи – самый важный вопрос // <https://uza.uz/posts/70440>

Данная диссертация в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-2909 от 20 апреля 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», № ПП-3775 от 5 июня 2018 года «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах», № ПП-5117 от 19 мая 2021 года «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан», № УП-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Послании Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису от 24 января 2020 года, Законе Республики Узбекистан № ЗРУ-637 от 23 сентября 2020 года «Об образовании», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 312 от 19 мая 2021 года «О мерах по эффективной организации популяризации изучения иностранных языков», а также в ряде других нормативно-правовых документах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-образовательном развитии информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

Степень изученности проблемы. В последние годы ускорение процессов глобализации и их влияние на образ жизни человека привели к повышенному интересу ученых к вопросам идентичности и ее роли в жизни людей. Особенно интенсивно изучается идентичность с точки зрения личности, общества и политики.

В частности, в Узбекистане такие учёные, как Ш.Искандаров, З.Одинаева, Д. Каландарова, Х.Кадирова, А.Хурсандов, Х.Сокиев², исследовали проблему идентичности в рамках социальной философии, религиоведения, истории, социологии и политологии, тогда как шестая глава книги Ш.Мадиевой «Антропология идентичности»³ под названием «Идентичность узбекского языка – неотъемлемая часть национальной идентичности» имеет особую ценность тем,

